

**O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA KORPORATIV KREDIT
MONITORINGINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI IQTISODIY
MODELLASHTIRISH**

Yuzbayeva Shaxsanam Ma’rufovna

Milliy Texnologik Tadqiqotlar Universiteti "MISIS" Olmaliq filiali

Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Tezida bank tizimining raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ko‘rsatayotgan ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon qilingan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bankdagi amaliyot jarayonlarining samaradorligini oshirishi, xizmatlar sifatini yaxshilashi hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishi bayon qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar va mobil ilovalar bank tizimidagi qo‘llanilishi, ular orqali iqtisodiy faollik va investitsiya muhitining yaxshilanishi ochib berilgan. Maqolada raqamli transformatsiyaning afzalliklari, ularning bank tizimining barqarorligini ta’minlovchi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim yo‘nalishdan biri ekanligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, bank tizimi, moliyaviy inklyuziya, kiberxavfsizlik, blokcheyn texnologiyasi, sun‘iy intellekt, elektron to‘lovlar, raqamli infratuzilma, innovatsion rivojlanish.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalar barcha sohalarda, xususan bank tizimida keng qo‘llanilishi natijasida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmi tubdan o‘zgarib bormoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat bank operatsiyalarining samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga ham zamin yaratadi. Bugungi kunda jahon bank amaliyotida raqamli platformalar, mobil bank ilovalari, blokcheyn texnologiyasi, sun‘iy intellekt va avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil vositalari bank xizmatlarining sifatini oshirishga va ularning mijozlariga qulay muhit yaratishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ""Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-sonli Farmonida raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish to‘g‘risida, mamlakatda elektron to‘lov tizimlari, onlayn-kreditlash, raqamli identifikatsiya xizmatlari tizimi bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga 2025-yil 25-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida "Sog‘liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bojxona-soliq, transport, tog‘-kon va qishloq xo‘jaligi sohalariida sun‘iy intellekt bo‘yicha 100 ta loyiha rejalashtirilgan. Ularni amalga oshirish uchun shunga mos quvvatlar, zamonaviy super kompyuterlar kerak. Lekin hozirgi mavjud quvvatlar faqat kichik loyihalarni ishga

tushirish uchun yetadi. Shu bois, zamonaviy super kompyuter klasterlari va "Data-markaz"larni ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Bu yil 16 ta super kompyuter sotib olish uchun 50 million dollar ajratildi. Keyingi yil bu mablag' 2 karra oshiriladi" [1]. Keltirib o'tilgan ustuvor yo'nalishlar va belgilangan topshiriqlar natijasida bank tizimining raqobatbardoshligini oshishi, aholi va biznes sub'ektlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengayishi va xizmatlarning xavfsizligi ta'minlanishi natijasida milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishira olib keladi.

Raqamli bank xizmatlarini joriy etish orqali milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash hamda aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish zaruriyati shu sababli ushbu soha dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bank tizimining raqamli transformatsiyasi milliy iqtisodiyotning raqamli inqilob bosqichiga moslashishida hal qiluvchi masalalarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat kasb etayotganligi tadqiqot mavzusining dolzarbliligini belgilab beradi.

Bank tizimining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank operatsiyalarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi. Masalan, onlayn-kreditlash, mobil to'lov tizimlari va raqamli identifikatsiya usullari bank xodimlari ishtirokini kamaytirib, operatsiyalarning tezligini va aniqligini oshiradi. Bu o'z navbatida, moliyaviy xizmatlarning qo'llanish sohasini kengaytiradi hamda aholi, biznes vakillari uchun vaqt va xarajat tejamkorligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya bank tizimida shaffoflik va hisobdorlik darajasini kuchaytiradi. Elektron ma'lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari va blokcheyn texnologiyalari orqali barcha operatsiyalar ochiq va nazorat qilinishi mumkin bo'ladi. Bu holat moliyaviy xatarlarni kamaytiradi, korrupsiyaviy omillarni cheklaydi va davlat moliya nazorati tizimining samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiyotdagi moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Aholi qatlamlarining barchasi, jumladan chekka hududlarda yashayotgan fuqarolar ham mobil ilovalar yordamida bank xizmatlaridan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa aholining moliyaviy faolligini oshirib, ichki iste'mol bozorining kengayishiga, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli bank tizimining joriy etilishi bir qator muammo va xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli infratuzilma barqarorligi masalalari bugungi kunda bank tizimi oldidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib turibdi. Ba'zi hollarda raqamli texnologiyalardan foydalanishda texnik nosozliklar, ma'lumotlarning yo'qolishi yoki suiste'mol qilinishi iqtisodiy va huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois raqamli transformatsiya jarayonida xavflarni boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli infratuzilmani yangilash va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, raqamli savodxonlikni oshirish va mutaxassislarni tayyorlash milliy iqtisodiyotdagi raqamli islohotlarning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, bank tizimining raqamli transformatsiyasi milliy

5-Iyul, 2026-yil

iqtisodiyotning barqaror o'sishi va moliyaviy inklyuziya darajasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlillarda, so'nggi besh yil ichida raqamli to'lovlar hajmi 5,6 barobarga oshgan, mobil va internet-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa ikki barobarga ko'paygan. Bu holat bank operatsiyalarining tezkorligi va shaffofligini oshirish, qolaversa, iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida pul aylanmasi samaradorligini yaxshilash imkonini bergan.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimining raqamli transformatsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada moliyaviy inklyuziya darajasi ortib, aholi va biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yanada kengaymoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 25-oktyabr kungi Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yangi bosqichga olib chiqiladi. <https://president.uz/oz/lists/view/8582>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti. Yillik hisobot 2023. https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guaj_in4x01_h7iyxa/Y_illik-hisobot-2024.pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh.,2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5030957>
4. Uzbekistan - Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025>
5. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program-Financial System Stability Assessment. <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2025/06/23/Republic-of-Uzbekistan-Financial-Sector-Assessment-Program-Financial-System-Stability-567987>